BUXORO VILOYATI PESHKU TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 9-sentabr | 331-2-39-Q/25 | Peshku tuman hokimligi

Buxoro viloyati hokimining 2025-yil 3-sentabrdagi “Buxoro viloyati mahalliy budjetining 2025-yil daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 427-2-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

Buxoro viloyati hokimining 2025-yil 3-sentabrdagi “Buxoro viloyati mahalliy budjetining 2025-yil daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 427-2-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28-, 143- va 148-moddalari va Peshku tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 4-sentabrdagi 02-32/235-son xatiga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. Buxoro viloyati hokimining 2025-yil 3-sentabrdagi “Buxoro viloyati mahalliy byudjetining 2025-yil daromadlar va xarajatlar rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 427-2-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Peshku tumani mahalliy budjetining 2025 yil ijrosi jarayonida:

umumiy hajmi o‘zgarmagan holda tuman mahalliy budjetining ayrim soliq turlari kesimida daromadlar prognoz rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar **1-ilovaga muvofiq;**

hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilariga tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari hamda mahalliy budjet xarajatlari rejasiga nisbatan **10 foizdan kam** miqdordagi tegishli o‘zgartirishlar **2-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Ergashev)ga:

mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlarni davriy hisobotlarda va mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalarini aniqlashda hisobga olish;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 7-oktabrda 3558-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan yo‘riqnoma talablariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma-bildirishnomalarni tegishli hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilari va budjet tashkilotlariga dasturiy majmua orqali yuborilishini ta’minlash topshirilsin.

4. Ushbu qaror xalq deputatlari Peshku tumani kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Peshku tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **H.H.Davlatov**

Peshku tumani hokimining
2025-yil 9-sentabrdagi
331-2-39-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Peshku tumani mahalliy budjetining ayrim soliq turlari kesimida 2025-yil daromadlar prognoz rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar miqdorlari

mln.so‘mda

Soliq turlari nomi	2025 yilda o‘zgarti-rishlar miqdori, jami	Shu jumladan, choraklar kesimida			
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
Aylanmadan olinadigan soliq	0,0	-200,0	-239,0	0,0	439,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0,0	209,0	1 052,0	0,0	-1 261,0
Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0,0	0,0	2,0	0,0	-2,0
Aksiz solig‘i jami	0,0	0,0	1 465,0	0,0	-1 465,0
shundan, benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0,0	0,0	1 465,0	0,0	-1 465,0
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0	0,0	-362,0	0,0	362,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	0,0	-59,0	-184,0	0,0	243,0
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0,0	-3 490,0	-3 693,0	0,0	7 183,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0,0	-150,0	1 470,0	0,0	-1 320,0
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	0,0	2,0	0,0	-2,0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	-327,0	-653,6	0,0	980,6
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	0,0	0,0	7,0	0,0	-7,0
Boshqalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

JAMI	**0,0**	**-4 017,0**	**-1 133,6**	**0,0**	**5 150,6**

Peshku tumani hokimining
2025-yil 9-sentabrdagi
331-2-39-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilariga Peshku tumani budjetidan ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga kiritilgan tegishli o‘zgartirishlar

mln.so‘mda

Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilari nomi	**2025 yilda tasdiq-langan ***	**Viloyat darajasida kiritilgan o‘zgarti-rishlar ****	**O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan**	
			mahalliy budjet parmetrlari doirasida o‘zgarti-rishlar	**Tasdiqlangan rejaga nisbatan foizda, %**
Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	41 556,9	-30,8	191,0	0,5%
Madaniyat bo‘limi	3 988,4	15,1	252,9	6,3%
Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 518,0	-7,1	-62,3	-1,4%
Sport maktablari	12 248,2	-11,3	-3,6	0,0%
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 424,0	-7,4	-107,6	-4,4%
Qishloq xo‘jaligi soha tashkilotlari	3 712,8	27,7	34,4	0,9%
Irrigatsiya bo‘limi	2 028,6	0,0	0,0	0,0%
Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 564,0	23,0	-191,6	-7,5%
Tuman hokimligi	39 683,3	-155,1	55,5	0,1%
shundan, ijtimoiy ko‘nikma markazlari	97,0	0,0	0,0	0,0%
Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	11,6	-0,0	0,1	1,0%
Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	26 508,4	0,0	0,0	0,0%
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2 559,0	0,0	0,0	0,0%
Zahira jamg‘armasi	1 715,4	0,0	0,0	0,0%
Tuman hokimligi *(O‘zbekiston*	734,2	0,0	-77,8	-10,6%

Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)				
shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	137,0	0,0	-42,9	-31,3%
Axborot-kutubxona markazlari	597,2	0,0	-35,0	-5,9%
Tuman hokimligi (Obodonlashtirish boshqarmasi)	23 374,6	-1,6	-90,8	-0,4%
Boshqa tashkilotlar	0,0	0,0	0,0	0,0%
JAMI	**136 833,2**	**-147,5**	**-0,0**	**0,0%**

** Xalq deputatlari Peshku tumani kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-018-2-39-K/24-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.*
*** Viloyat hokimining 2025-yil 3-sentabrdagi 427-2-0-Q/25-sonli qaroriga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar ko‘rsatilgan.*